

**XALQARO LOYIHAVIY MOLİYALASHTIRISH BOZORI ISTIQBOLLI
YO‘NALISHLARI*****Sapayeva Aida Kadambay qizi****O‘zbekiston Respublikasi**Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro loyihaviy moliyalashtirish bozorining rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy o‘rni jarayonlaridagi o‘rni hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlar qo‘llanishi tahlil etiladi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida yirik infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy soha loyihalarini amalga oshirishda xalqaro moliya institutlari, banklar va xususiy investorlar bilan hamkorlik qilish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli, uzoq muddatli kreditlash, garovsiz loyihaviy moliyalashtirish va risklarni taqsimlash tamoyillarining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi jarayonida xalqaro loyihaviy moliyalashtirishning strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya, xalqaro moliya bozori, davlat-xususiy sheriklik, risklarni boshqarish, kapital qo‘yilmalar, infratuzilma loyihalari, moliyaviy resurslar.

Abstarct: This article analyzes the development trends of the international project financing market, its role in economic growth processes, and the application of modern financial instruments. In particular, it examines the mechanisms of cooperation with international financial institutions, banks, and private investors in the implementation of large-scale infrastructure, energy, transport, and social sector projects in Uzbekistan. The article substantiates the importance of the public-private partnership (PPP) model, long-term lending, non-recourse project financing, and risk-sharing principles. The research results show that international project financing has strategic significance in the modernization of Uzbekistan's economy.



Keywords: *Project financing, investment, international financial market, public-private partnership, risk management, capital investments, infrastructure projects, financial resources.*

Kirish

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar, texnologik modernizatsiya jarayonlari va global investitsiya oqimlarining qayta taqsimlanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholining hayot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tobora yaqqol namoyon bo'layotgani sababli yirik infratuzilmaviy, energetik, sanoat va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish har bir davlat uchun ustuvor strategik vazifaga aylangan. Bunday loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy byudjet mablag'lari yoki tijorat bank kreditlari ko'p hollarda yetarli bo'lmaydi yoki iqtisodiy jihatdan samara bermaydi. Shu bois xalqaro moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlaridan biri bo'lgan loyihaviy moliyalashtirish modeli alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Loyihaviy moliyalashtirishning mohiyati loyiha qiymati va xarajatlari uning kelajakda yaratadigan daromadlari hisobidan qoplanishiga asoslanadi. Bunda moliyalashtiruvchi tomonlar asosiy kafolat sifatida korxona yoki davlatning umumiy aktivlarini emas, balki aynan loyiha tomonidan yaratiladigan pul oqimlarini ko'rib chiqadilar. Shu sababli ushbu model yirik qurilish, infratuzilma, energetika, neft-gaz, metallurgiya, transport, telekommunikatsiya hamda ijtimoiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda keng qo'llanilmoqda. Xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyihaviy moliyalashtirish bozori 2023 yil yakunlariga ko'ra 430 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, oxirgi besh yil davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyish qilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya va raqamli infratuzilma sohalari eng tez o'sayotgan yo'nalishlar hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatlar, xususan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun xalqaro loyihaviy moliyalashtirish iqtisodiy modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va milliy infratuzilmani yangilashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston mustaqillikning yangi bosqichida qabul



qilingan iqtisodiy islohotlar natijasida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Saudiya Arabistoni, BAA va Xitoyning yirik investitsiya kompaniyalari mamlakat energetika, transport, suv ta'minoti va sanoat loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda mamlakatga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,6 milliard dollar bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 2,9 milliard dollardan oshgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik modeli faol tatbiq etilmoqda. Ushbu mexanizm davlat va xususiy sektor o'rtasida risklarni oqilona taqsimlashga, investorlar uchun barqaror daromad bazasini yaratishga hamda davlat byudjeti yuklamasini kamaytirishga xizmat qilmoqda. 2019–2023 yillar davomida mamlakatda DXSh asosida shakllangan investitsion loyiha portfeli 14 milliard dollardan oshgan. Masdar va ACWA Power tomonidan barpo etilayotgan shamol va quyosh elektr stansiyalari O'zbekiston energetika tizimining diversifikatsiyasi va energiya xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning joriy etilishi va samaradorligi faqat moliyaviy resurslarga emas, balki investitsion muhitning barqarorligi, huquqiy kafolatlar, davlat boshqaruvi samaradorligi va risklarni boshqarish tizimlarining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Shu bois O'zbekistonda oxirgi yillarda davlat qarzini boshqarish tizimi takomillashtirilgani, valyuta bozorining liberallasuvi, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik kengaygani, investitsiya muhitining huquqiy kafolatlari kuchaygani ushbu yo'nalishning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ammo amaliyotda loyihaviy moliyalashtirish bir qator murakkab chora-tadbirlarni talab qiladi. Loyiha daromadlarini uzoq muddatga aniq prognozlash, texnik-iqtisodiy asoslarni to'g'ri ishlab chiqish, ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash, xalqaro shartnomaviy standartlar asosida kelishuvlarni yuritish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish yuqori malaka va institutsional tajribani talab etadi. Shu sababli mamlakatda ushbu sohada malakali mutaxassislar



tayyorlash, bank tizimining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro ekspertiza bilan hamkorlikni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Natijada xalqaro loyihaviy moliyalashtirish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida strategik ahamiyatga ega vosita sifatida shakllanib bormoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu moliyalashtirish modelining nazariy asoslarini yoritish, jahon tajribasini o‘rganish hamda O‘zbekiston sharoitida uni rivojlantirish istiqbollari aniqlashdan iboratdir.

Xalqaro loyihaviy moliyalashtirishning iqtisodiyotdagi o‘rni nafaqat investitsion jarayonlarni faollashtirish, balki iqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki bunday loyihalar odatda uzoq muddatli, yuqori texnologiyalarga asoslangan, ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytiruvchi hamda yangi bandlik imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham loyihaviy moliyalashtirish davlatning modernizatsiya siyosati bilan uyg‘un holda ishlab, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sanoat klasterlarining shakllanishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash quvvatlarining barpo etilishi, strategik xomashyo resurslarini o‘zlashtirish va qayta ishlash loyihalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aynan ushbu moliyalashtirish modeli orqali iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro loyihaviy moliyalashtirish global moliya bozorlariga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Loyihalarining xalqaro reyting agentliklari, kredit sug‘urtalash tashkilotlari, xalqaro audit tizimlari va transmilliy banklar tomonidan baholanishi, milliy iqtisodiyotning shaffofligi va ishonchlilik darajasini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida yangi investorlar va hamkorlar uchun mamlakat iqtisodiy salohiyatining ochiqqligini ta‘minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, loyihaviy moliyalashtirish — bu faqat moliyaviy mexanizm emas, balki iqtisodiyotning global tizimga integratsiyalanish mexanizmidir.

Mazkur moliyalashtirish usulining yirik afzalliklari bilan bir qatorda, uni muvaffaqiyatli joriy etish har doim ham oson kechmaydi. Loyihaning texnik-



iqtisodiy asoslarini puxta ishlab chiqish, qurilish va ekspluatatsiya davrlarini optimallashtirish, tender tartib-taomillarida raqobat muhitini ta'minlash, moliyaviy oqimlarni monitoring qilish kabi jarayonlar yuqori tartib-intizomni talab qiladi. Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, loyihaviy moliyalashtirishning eng muhim omillaridan biri bu loyiha boshqaruvining professional darajasidir. Shu sababli O'zbekistonda loyihaviy boshqaruv, moliyaviy tahlil, xalqaro shartnomachilik huquqi va risklarni boshqarish yo'nalishida mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, loyihaviy moliyalashtirishning kompleks xarakterga egaligi uning barcha bosqichlarida chuqur tahlil va puxta rejalashtirishni talab qiladi. Loyiha tashabbuskorlari, moliya institutlari, davlat idoralari, pudrat tashkilotlari hamda mustaqil texnik va iqtisodiy maslahatchilar o'rtasida samarali koordinatsiya mexanizmlari mavjud bo'lishi zarur. Ayniqsa, loyihani boshlashdan oldingi bosqichda amalga oshiriladigan texnik-iqtisodiy asos (TEO) jarayonining sifati loyihaning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Amaliyotdan ma'lumki, TEOda talab prognozlari, rentabellik ko'rsatkichlari, risklarni aniqlash va ularni minimallashtirish strategiyalari, atrof-muhitga ta'sir bahosi, moliyaviy model va daromadlar taqsimoti kabi elementlarning puxtaligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlari jadallashgan bir paytda, aynan loyihaviy moliyalashtirish iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yirik sanoat korxonalari negizida klasterlashuv modeli, transport-logistika yo'laklarining kengaytirilishi, energetika tizimini diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligida chuqur qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlar investitsiya talabini keskin oshirmoqda. Mamlakat ichki bozori bilan bir qatorda tashqi bozorlar uchun ham raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy infratuzilma yaratish aynan loyihaviy yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan davlat tomonidan investorlar uchun soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, eksport kreditlari, bojxona preferensiyalari kabi rag'batlantiruvchi



omillarning mavjudligi ham loyihalarning muvaffaqiyat omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun davlat organlari tomonidan shaffof ma'lumotlar bazasini yaratish, investitsion loyihalar bo'yicha yagona elektron platformaning joriy etilishi, huquqiy nizolar yuzaga kelganda xalqaro arbitraj institutlariga murojaat jarayonini soddalashtirish kabi mexanizmlar keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda qator normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, DXSh loyihalarini tanlash, baholash va monitoring qilishning yagona tartibi belgilandi, investorlar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kafolatlar kuchaytirildi, davlat organlarining majburiyatlari aniq belgilab qo'yildi.

Umuman olganda, xalqaro loyihaviy moliyalashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi, infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi va xalqaro raqobatbardoshlikning oshishida muhim o'rin tutadi. Bu uslub iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, byudjet yukini kamaytirish, innovatsion texnologiyalarni jalb qilish hamda xususiy sektor faolligini oshirish orqali mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim ustunliklarni ta'minlab beradi.

Xulosa

Xalqaro loyihaviy moliyalashtirish yirik infratuzilmaviy, energetik va sanoat loyihalarini amalga oshirishda muhim mexanizm bo'lib, davlat byudjeti yuklamasini kamaytirish, xususiy kapitalni jalb etish va risklarni oqilona taqsimlashga xizmat qiladi. Loyiha xarajatlari uning kelajakda yaratadigan daromadlari hisobidan qoplanishi moliyaviy intizomni kuchaytiradi va investitsion jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda islohotlar, valyuta liberallasuvi, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi loyihaviy moliyalashtirishning faol qo'llanishiga zamin yaratdi. Energetika, transport infratuzilmasi va sanoat sohalaridagi yirik DXSh loyihalari



iqtisodiyotning modernizatsiyasi va energetik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu modelning samaradorligi huquqiy barqarorlik, investitsion xavfsizlik, shartnomaviy munosabatlarning puxtaligi hamda professional loyiha boshqaruviga bog'liqdir. Shu bois kelgusida malakali kadrlar tayyorlash, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish va mahalliy moliya institutlarining salohiyatini oshirish muhim vazifa bo'lib qoladi.

Umuman olganda, xalqaro loyihaviy moliyalashtirish O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi, infratuzilmaning modernizatsiyasi va milliy raqobatbardoshlikni oshirishda strategik ahamiyatga ega vosita sanaladi.

Takliflar

1. **Loyihaviy moliyalashtirish uchun institutsional salohiyatni kuchaytirish zarur.** Buning uchun davlat organlari, tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari va loyiha tashabbuskorlari uchun loyihaviy boshqaruv, moliyaviy tahlil, risklarni boshqarish va xalqaro shartnomachilik huquqi yo'nalishida maxsus o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2. **Loyihaviy moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy banklar imkoniyatlarini kengaytirish lozim.** Banklarni uzoq muddatli kreditlash resurslari bilan ta'minlash, investitsiya bankchiligi mexanizmlarini rivojlantirish, xalqaro moliya institutlari bilan sindikat kreditlarini keng joriy etish loyihalar barqarorligini oshiradi.

3. **Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini takomillashtirish va shaffofligini kuchaytirish kerak.** DXSh loyihalarida tender jarayonlarining ochiqqligini ta'minlash, risklarni taqsimlash bo'yicha yagona metodologiyaga amal qilish, shartnomalar ijrosini monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish investorlarga bo'lgan ishonchni oshiradi.

4. **Texnik-iqtisodiy asoslarni puxta ishlab chiqish va loyiha risklarini oldindan baholash tizimi mustahkamlanishi kerak.** Loyihalarni rejalashtirish bosqichida muqobil ssenariylar ishlab chiqish, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlarini aniq model asosida baholash, xalqaro tajriba va ekspertizadan foydalanish loyiha natijalarining barqarorligini ta'minlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov B. *Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Karimov A., Jo‘rayev M. *Loyihaviy moliyalashtirishning nazariy asoslari*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “*Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*” PQ–965. 2019 yil 20 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari. – URL: <https://stat.uz>
5. Bazhenov A. A. *Proektnoe finansirovanie: teoriya i praktika*. – Moskva: INFRA-M, 2020.
6. Shirokova G. V. *Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v infrastrukturnykh proektakh*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.
7. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Guidelines on Promoting PPP for Sustainable Development*. Geneva, 2021.
8. World Bank Group. *Private Participation in Infrastructure (PPI) Annual Report*. Washington D.C., 2023.
9. Yescombe E. R. *Principles of Project Finance*. – London: Academic Press, 2014.
10. Gatti S. *Project Finance in Theory and Practice*. – Elsevier, 2018.